

## O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA OTA OBRAZI

Mushtariy Bozorboyeva Maxammatjon qizi

Marhabo Abduolimova Abduxalil qizi

FarDu talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10418416>

**Anontatsiya:** Ota obrazi jahon adabiyotida ham alohida o'rin tutadi. Jahon adabiyotida bu mavzuda yaratilgan asarlarga misol qilib ko'plab asarlarni keltirishimiz mumkin. Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdam adibimizning ijodlaridan o'rin olgan –Ota romaniga atroflicha fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ota, oilaviy munosabatlar, do'stlik.

Bilamizki o'zbek adabiyotida bunday asarlar kam. Deyarli barcha yozuvchilarning badiiy asarlarda ona obraziga ko'proq urg'u beriladi. Misol uchun O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida o'zbek onalari haqiqiy timsol darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida o'zbek otalarining chinakam timsoli aks etgan deyishimiz mumkin. Shu kungacha badiiy adabiyotimizdagi biron asarda ota obrazi alohida namoyon bo'lmagan edi. Ushbu roman orqali haqiqiy o'zbek otalari qanday bo'lishi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Hech kimga sir emaski, jahon adabiyotida ham bu mavzuda yaratilgan asarlar mavjud. Misol uchun Fridrix Shillerning "Qaroqchilar", Turgenovning "Otalar va bolalar", Onore de Balzakning "Gorio Ota" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Ota romaniga quyidagi ta'rif ham bejizga keltirilmagan: "Adabiyotimiz jumladan romanchiligimiz falaj holatga tushib qolgan hozirgi sharoitda bu asar roman janriga qayta jon ato etdi".[1] "Ota" bu so'zni eshitganda har bir insonning ko'z o'ngida shaxsan mening ko'z ongimda ham farzandlari uchun, ularni kelajagi uchun jonini berishga tayyor bo'lgan shaxs timsoli gavdalanadi. Men buni asardagi quyidagi misolda ko'rdim. " Qani edi, -den siniqib o'yladi Po'lat yo'lda, -Sevinchning dardiga hayotning o'zi hamisha malham qo'yib tursa! Qizalog'imning mas'um ko'zlarizdan o'kinch ko'z yoshlarini oqqizmasa!... Qani edi..."

Xalq og'zaki ijodi namunalari xisoblangan dostonlarda, turli xil maqollarda ham ota obrazi tasvirlangan. Misol uchun, Ota rozi - Xudo rozi.

Birgina uch og'ayni botirlar etagidagi otaning o'g'illariga to'g'ri bo'ling behavotir bo'lasiz, maqtanchoq bo'lmang hijolat tortmaysiz, dangasalik qilmang baxtsiz bo'lmaysiz deb qilgan nasixati xalqimizning milliy o'zligini ko'rsatib turuvchi ko'zgudir. Asarni qo'limizga olib o'qir ekanmiz, ichimiz junbushga keladi, chunki ushbu asarda o'zbek otalarining o'ziga xos tasviri gavdalantirilgan. "Qizim! Men ham ota bo'ldimmi? Axir, seni Xudoyimdan tilab olgandim? Tilab olganim holda, Yaratgan Egam marhamat ko'rsatgani holda, allaqanday ishlar bilan band bo'ldim! Shu kerakmidi menga? Bir burda nonga zor qolgan joyim bormidi? Yeganimiz oldimizda, yemaganimiz ketimizda bo'lgan odamlar bo'lsak, nega ish deya chalg'idim? Nahotki, seni yo'qotgan bo'lsak?!... Yo'q, qizim, sensiz yashagandan yashamagan yaxshiroq!..." Asarning asosiy qahramoni Po'lat hisoblanadi. Uning hayoti urush degan balo tufayli o'zgarib ketadi. " Oti o'chgur urush Po'latning etagidan tutdi. Nima qilsin, bechora yigit: bir ko'ngli tezroq borayda-da, qo'limga qurol olib, yurtga bostirib kirgan gazandalarni adabini berib quvib silay, desa, boshqa ko'ngli yurtidan, onasidan, sevgilisi Yog'dudan bir lahza bo'lsin, ayrilmasam, derdi..."

Asarda oila munosabatlari bilan bir qatorda do'stlik aloqalariga ham etibor qaratilgan. Asar boshidanoq Po'lat va uning Nikita bilan do'stligi, urushda o'tkazgan kunlari juda ta'sirli.

Yozuvchi esa bu go`zal do`stlikka bir og`iz gap bilan izoh beradi: —Hatto kishining o`z soyasi ham uning o`zi bilan Nikita va Po`lat birga bo`lganchalik birga bo`lolmaydi.

Asarda Po'lat otaning qizi Sevinchga bo'lgan mehri hamda unga bo'lgan ichki nafrati ham yorqin ochib berilgan. "—Axir men otaman, ota! Bu dunyo otalar qo'lida edi-ku yoki men tufayli chiqib ketdimi? Yo`q, yo`q, bunga yo`l qo`yib bo`lmaydi. Aslo! Kerak paytda otalar qatiq turmas ekan, dunyo ham o`z o`rnida turmaydi: buziladiketadi. Mana, men—seni ko`p yaxshi ko`rib yubordim. Yuzing kuyik, yuraging kuymasin dedim, erkaladim, papaladim. Xo`sh, nima bo`ldi keyin? Ko`chadan bola orttirding! Haromi deyishadi axir bunday bolani, haromi!.. Yo Alloh, qanday qilib yo`l qo`yding bunga? Endi qanday chidayman? Meni nevaramharomi bo`lib keladimi uyimga?!.. Yo`q, also mumkin emas!.. Bugun men bunga xo`p desam, ertaga yana boshqa birov qiladi bu ishni! Endi keyingisiga yo`l qo`ymayman! Odamlar xayolida —Shunday qilib bola tug`ish mumkin ekan degan o`yni tag-tomiri bilan sug`urib tashlash uchun ota qilishi kerak bo`lgan ishni qilaman!.. Sevinch, shu choqqacha otang mehrini ko`rib kelding, endi qahrini ham ko`r!.. Shunga meni majbur qilganing uchun la`nat bo`lsin senga, la`nat bo`lsin bunday qismatga!.."

Po'lat ota o'zi orziqib kutgan qizini hech nimaga zoriqtirmasdan, hech kimdan kam qilmasdan ulg'aytiradi. Uning qiziga bo'lgan mehrini ushbu misralar orqali anglash qiyin emas: "...Sevinch nima desa, nima istasa hammasini muhayyo qilishdi ota-onasiyu bobo-momosi, hammasi! Dunyoning borliq yaxshiliklari Sevinchning oyoqlari ostiga to`kilgan, bu ham kamlik qilgandik, hammaning e`tibori unga qaratilgan, hullasi kalom, o`ris ertaklaridagi Zolushkaga aylangandi-qolgandi Sevinchqiz."

Ammo hayotda shunday hodisalar ham bo`ladiki inson qanchalik ardoqlab voyaga yetkazmasin, o'zi xohlamagan vaziyatlar tufayli farzandidan voz kechishga majbur bo`ladi. Aslida hech qaysi ota yoki ona farzandidam voz kecha olmaydi deb o`ylaymiz lekin vaziyatlar odamlarni shunga majbur qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ota - onalar farzandalarini o`zlaridanda yaxshiroq hayot kechirishlari, boshqalardan kam bo`lmasliklarini, ko`ngillari o`ksimasligini xohlashadi va ularga o`zliklarida yo`q bo`lgan hayotni yaratib berishadi. Lekin ularni tartibga chaqirishni unutishadi, natijada o`zlari bilmagan va xohlamagan holda yomonlik qilib qo`yishadi. Bolalarga yaxshi hayot bilan birgalikda yaxshi tabiya va e`tibor berish kerak.

### References:

1. U. Normatov filologiya fanlari doktori.
2. УлуғбекҲамдам. Ота. Тошкент: Янгиасравлоди, 2020. –140-б
3. Ernest Hemenguey —Alvido Qurol|| 1929 у3.Kurbanov, S. . (2023).
4. The Theme of Father-Daughter Relationship in —to Kill a Mockingbird by Herper Lee. Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences, 144–147.Retrievedfrom<https://openconference.us/index.php/ysc/article/view/804>.4.Kurbanov,S .(2023).
5. ЎТКАНКУНЛАР РОМАНИДА ОҚИЛ ОТАЛАР ОБРАЗИ ТАЛҚИНИ. ЦЕНТРНАУЧНЫХПУБЛИКАЦИЙ(buxdu.Uz),32(32).извлеченоот[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/9470](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9470).5.Saparova,M.R.,&Sevinchova,N.N.(2019)
6. “FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY ASINTERDISCIPLINARY SCIENCES”[219]ULUG`BEK HAMDAMNING —ОТА ROMANIDA PO`LAT OBRAZI Murodullayev Abdulloh BDU 4-bosqich talabasi.